

O'SPIRINLIK DAVRIDA KASB TANLASHGA DOIR MUAMMOLAR

Toshkent Amaliy fanlar Universiteti Pedagogika fakulteti

Psixologiya yo'nalishi I-bosqich talabasi

Shoyusufova Muslima Kamoliddin qizi

Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti dotsenti, PhD

Kudratova Lola Ravshanovna

Anottatsiya: Ushbu maqolada o'spirinlik davridagi eng katta muammolardan biri kasb tanlash muammosi tahlil qilinadi. O'spirinlar hayotining ayni murakkab bosqichida ular o'z qiziqishlari, imkoniyatlari va ijtimoiy ta'sirlar o'rtasida tanlov qilishga majbur bo'ladilar. Maqolada ota-onalar, o'qituvchilar va jamiyatning roli, shuningdek, o'spirinlarning psixologik xususiyatlari, qaror qabul qilishdagi ikkilanishlari va kuchli tanlov ehtimollari haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Maqola so'ngida kasbga yo'naltirish bo'yicha samarali metodlar, psixologik maslahatlar va tizimli yondashuvlar taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: o'spirinlik davri, kasb tanlash, psixologik muammolar, qaror qabul qilish, kasbga yo'naltirish, ota-ona ta'siri, shaxsiy qiziqish, kasbiy yo'naltirish metodlari, mehnat bozori, Xoland metodikasi.

Аннотация: В статье анализируется одна из самых больших проблем подросткового возраста — проблема выбора карьеры. На этом критическом этапе жизни подростки вынуждены делать выбор между своими интересами, возможностями и социальным влиянием. В статье представлена подробная информация о роли родителей, учителей и общества, а также о психологических особенностях подростков, их колебаниях при принятии решений и вероятности принятия неправильного выбора. Статья завершается эффективными методами, психологическими советами и системными подходами к профориентации.

Ключевые слова: подростковый возраст, выбор карьеры, психологические проблемы, принятие решений, профориентация, родительское влияние, личный интерес, методы профориентации, рынок труда, методология Холланда.

Abstract: This article analyzes one of the biggest problems of adolescence – the problem of choosing a profession. At this difficult stage of adolescents' lives, they are forced to make a choice between their interests, opportunities and social influences. The article provides detailed information on the role of parents, teachers and society, as well as the psychological characteristics of adolescents, their hesitations in decision-making and the likelihood of making a bad choice. At the end of the article, effective methods, psychological advice and systematic approaches to career guidance are presented.

Keywords: adolescence, career choice, psychological problems, decision-making, career guidance, parental influence, personal interest, career guidance methods, labor market, Holland methodology.

Hozirgi kunda mehnat bozoridagi tezkor o'zgarishlar, yangi kasblarning paydo bo'lishi va raqobatning kuchayishi fonida o'spirinlarning o'z qobiliyat va qiziqishlarini to'liq anglab yetmasdan, ota-onalar yoki jamiyat bosimi bilan kasb tanlashga majbur bo'lmoqda. Bu esa kelajakda noto'g'ri tanlov, kasbiy norozilik va ijtimoiy moslashuv muammolariga olib kelmoqda. Shuningdek, zamonaviy axborot oqimlari, Internet va ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ongiga ta'siri ham kasb tanlashda chalkashliklarni keltirib chiqarmoqda. Shu sababli o'spirinlik davrida kasb tanlash muammolarini o'rganish tahlil qilish va yechimlar, taklif qilish bugungi kundagi eng muhim masalalardan biri.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z nutqlarida yoshlarning kasb tanlashi, ta'lim va tarbiyasi masalalariga alohida e'tibor qaratadi. Davlat rahbari ta'kidlaganidek: "Bugungi kunda biz yoshlarga zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni o'rgatmasak ertaga raqobatbardosh bo'lgan mutaxassislarni yetkazib bera olmaymiz" [1].

Ushbu fikr ham o'spirinlik davrida kasb tanlash muammosining dolzarbligi davlat siyosati darajasidagi masala ekanligidan dalolat beradi. "Nima sababdan o'spirinlik

davrining muammolaridan biri aynan kasb tanlovi asosida boradi? ” degan savol tug‘ilishi mumkin. Kasb nafaqat iqtisodiy barqarorlikni, balki, insonning o‘zini jamiyatda anglashi, rivojlanishi va baxtiyor hayot kechirishi uchun asosiy omildir. Bundan tashqari yetuklik davrining asosiy faoliyat turi ham aynan mehnat faoliyati bilan bog‘liq hisoblanadi. Kasb tanlash muammosi yuzasidan psixologlar o‘smirlik davri inson hayotidagi shaxsiy identifikatsiya ya’ni “men kimman?” degan savolga javob izlash bosqichidir degan fikrni ham ilgari suradilar.

Mashhur rus psixologi L. S. Vigotskiy yoshlarning rivojlanishida ularning faoliyati va ijtimoiy muhit bilan munosabatlarini hal qiluvchi rol o‘ynashini qayd etgan. Unga ko‘ra: “Shaxsning rivojlanishida ijtimoiy tajriba asosiy omildir. Ayniqsa, o‘spirinlik davrida bu tajriba kasb tanlash orqali o‘z aksini topadi”. [2] Amerikalik psixolog D. E. Super esa kasbiy rivojlanish nazariyasida inson hayotini bosqichma-bosqich kasbiy shakllanish jarayoni sifatida ko‘radi. Uning fikricha: “O‘spirinlik davrida inson o‘ziga xos “kasbiy men” obrazini shakllantiradi. Bu esa uning keyingi tanlovlari va kasbiy yo‘nalishini belgilaydi.” [3] Shuningdek, Z. Freyd va E. Eriksonlar ham o‘spirinlik davrida identitet inqirozi va kasb tanlash o‘rtasidagi bog‘liqlikka urush berishgan. E. Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasida bu davr “identitetga erishish va rol chalkashligi” bosqichi deb ataladi va quyidagicha ta’rif beradi: “Agar yoshlar bu davrda qiziqishlari va jamiyat talablari o‘rtasida muvozanat topa olmasa, ularning kasbiy va shaxsiy hayotida barqarorlik bo‘lmaydi”. [4]

O‘spirinlik davrida kasb tanlash ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishining muhim bosqichi bo‘lib, ularning kelajakdagi muvaffaqiyatiga va jamiyatga qo‘shgan hissasiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi– o‘spirinlarning kasb tanlash jarayonida yuzaga keladigan to‘siqlarni aniqlash va bu muammolarni hal qilish uchun samarali tavsiyalar ishlab chiqishdir.

O‘spirinlik davri – bu inson hayotidagi eng murakkab va eng ma’suliyatli bosqichlardan biri bo‘lib, shaxs sifatida shakllanishi, dunyo qarashi va hayotiy qadriyatlarining rivojlanishi ham aynan shu davrda yuz beradi. Bu davrda yoshlar o‘z kelajagi, kasbi, o‘z hayot yo‘li haqida o‘ylay boshlaydi. Biroq o‘spirinlar o‘z salohiyati

qiziqishlari va mehnat bozorining talablariga mos ravishda kasb tanlashga qiynaladi. Shu sababli ushbu muammoning ijtimoiy va psixologik jihatlarini chuqur tahlil qilish dolzarb ahamiyatga ega.

Shunday qilib, nazariy manbalar va psixologik qarashlar asosida shuni aytish mumkinki, o'spirinlik davridagi kasb tanlash masalasi nafaqat ta'lim tizimi, balki, jamiyat, oila va psixologik xizmatlar uchun ham muhim strategik vazifadir.

Kasb tanlash hayotimizdagi dolzarb masala ekanligini bilib oldik. Endi kasb tanlash jarayoniga qanday omillar ta'sir etishini ham ko'rib chiqsak. Bu borada eng muhim jihat psixologik omillar hisoblanadi. Masalan, ichki motivatsiya va shaxsiy identifikatsiya, qiziqish va qobiliyatlarning anglanganligi, ota-ona va jamiyat bosimining ta'siri shular jumlasidan. O'spirinlar uchun yo'naltirish ishlari faqat psixologik yondashuvlar bilan cheklanmasdan ijtimoiy muhit va ota-onalarning ham farzandlariga o'z qiziqishlari va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda biror bir kasbga yo'naltirishda ko'mak berishlari zarur. Pedagoglar esa o'quvchi yoshlarga kasbiy sohalar va ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida to'liq tushuncha berishlari kerak bo'ladi. O'spirinlarga kasb tanlashda yordam berish uchun psixologik suhbatlar, treninglar va testlar o'tkazish lozim. Masalan, Xollandning "Kasbiy qiziqishlar testini", Shubert metodikasi, Golemanning "Emotsional intellekt testlar" va IQ testlarni qo'llash o'spirinlarning qiziqishlari va salohiyatini muhim vositadir.

Shu borada aynan o'spirin yoshdagi o'quvchilarni kasbga yo'naltirish bo'yicha Xolland "Kasbiy qiziqishlar" metodikasini eksperiment sifatida o'tkazdik. Ushbu metodika asosida amerikalik psixolog, olim Ya. Xolland taklifi bo'yicha odamlar va ko'pchilik kasblar shartli ravishda 6 ta guruhga bo'ldi. Bular realistik, ijtimoiy, konvensial (shartli), tadbirkorlik, artistik va aqliy tiplar. Bu metodika orqali yuqorida qayd qilingan tiplarni qaysi biri o'quvchilarda qay darajada namoyon bo'lishini aniqlash mumkin. Kasblarning xususiyati shundaki, shaxs psixologiyasida qaysi bir yo'nalish ko'proq shakllangan bo'lsa, shu kasb o'ziga ko'proq jalb qiladi. Eksperimentda 7 nafar 9-sinf o'quvchilari qatnashdi. Testning natijalariga ko'ra, eng yuqori tip bu tadbirkorlik tipi hisoblanib, 7 ta o'quvchidan 4 tasida aynan tadbirkorlikka qiziqish borligini aniqladik.

Tahlil natijalariga ko'ra bunday tipdagilar yuqori lavozimda ishlashni yoqtiradilar. Shu bilan birga qo'l mehnati va diqqatni bir joyga jamlaydigan ishlarni unchalik ham yoqtirmaydilar. Ular uchun direktorlik, teleoperator, artist, diplomat, jurnalist kabi bir qator kasblarni tanlashlari tavsiya etildi. Eng past darajadagi tip bu realistik tip bo'lib, deyarli hech kim bu tipga mos emasligini kuzatdik. Chunki, bunday tipdagi shaxslar ko'proq konkret obyektlar bilan shug'ullanishni afzal ko'radilar, chaqqonlik va aniqlikni ham xush ko'rishadi. Odamlar bilan muloqotni yoqtirmaganliklari tufayli yuqori lavozimlarda ishlashni xush ko'rmaydilar. Ular injenerlik, elektrik, agronom, bog'bon, haydovchi va shunga o'xshash kasblarni tanlashadi.

Shunday ekan kasb tanlashda yuzaga keladigan bir qancha qiyinchiliklarni yengib o'tish uchun maktablarda o'quvchi yoshlarga maxsus treninglar va seminarlar o'tkazish tavsiya beriladi. Ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish ya'ni ularga farzandlarining mustaqil qaror qabul qilishi uchun imkoniyat yaratishlari hamda ularga trio maslahat berishlari lozim. Pedagoglar tomonidan esa o'quvchi yoshlarni kasb-hunarga qiziqtirib, o'quv muassasalari haqida to'liq hamda mazmunli ma'lumotlarni aniq qilib yetkazishlari maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, o'spirinlik davrida kasb tanlash o'smirlarning kelajakdagi muvaffaqiyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon nafaqat o'spirinning shaxsiy qiziqishlari va imkoniyatlariga, balki ota-onalar, jamiyat va ta'lim muassasalarining o'zaro ta'siri bilan bog'liqdir. Tadqiqot davomida kasb tanlashda yuzaga keladigan bir nechta to'siqlar va imkoniyatlar tahlil qilindi, shuningdek, bu jarayonni yengillashtirish uchun bir qator tavsiyalar ishlab chiqildi. Kasb tanlash – bu o'spirinlar uchun o'z qiziqishlari va orzularini amalga oshirish yo'li, ammo bu jarayon ko'plab ichki va tashqi omillar tomonidan murakkablashadi. O'spirinlarning o'ziga mos kasbni tanlashi uchun ta'lim muassasalarining, ota-onalarning va jamiyatning qo'llab-quvvatlashi muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, psixologik yordam va kasbiy yo'naltirish tizimini takomillashtirish o'spirinlarning kelajakdagi muvaffaqiyatlarini ta'minlashga yordam beradi.

Foydalanilgan Adabiyotlar Ro'yhati:

1. Sh. Mirziyoyev, Oliy Majlisga Murojaatnoma, 2022-yil
2. Vygotskiy L.S., “Pedagogik psixologiya”, 1926
3. Super D.E., “The Psychology of Careers”, 1957
4. Erikson E., “Identity: Youth and Crisis”, 1968
5. Goleman, D. (1995). Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. Bantam Books.
6. Holland, J. L. (1997). Making Vocational Choices: A Theory of Vocational Personalities and Work Environments. Psychological Assessment Resources.
7. Super, D. E. (1990). A Life-Span, Life-Space Approach to Career Development. In D. Brown, L. Brooks, & Associates (Eds.), Career Choice and Development (pp. 197-261). Jossey-Bass.
8. Erikson, E. H. (1968). Identity: Youth and Crisis. W.W. Norton & Company.
9. Savickas, M. L. (2005). The Theory and Practice of Career Construction. In S.D. Brown & R.W. Lent (Eds.), Career Development and Counseling: Putting Theory and Research to Work (pp. 42-70). Wiley.
10. Merton, R. K. (1949). Social Theory and Social Structure. Free Press.
11. Gardner, H. (1983). Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. Basic Books.
12. Leong, F. T. L., & Harmon, L. W. (2008). Career Development and Counseling: Putting Theory and Research to Work. Wiley.
13. Salovey, P., & Mayer, J. D. (1990). Emotional Intelligence. Imagination, Cognition, and Personality, 9(3), 185-211.
14. Super, D. E., & Sverko, B. (1995). Life-Span Development and Career Development. In A. Collin & J. P. T. O’Connor (Eds.), The Handbook of Career Theory (pp. 233-250). Cambridge University Press.
15. UNESCO. (2002). Understanding and Shaping the Future of Vocational Education. UNESCO Publishing.
16. Asliddinov, A., & Ibragimova, D. (2020). Kasb tanlashda o‘smirlik davrining roli va psixologik omillar. Tashkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti.